

Jo'raqulova Yayra

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti 2-kurs bitiruvchisi

LEKSIK-STILISTIK VOSITALARNING TARJIMADAGI XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada leksik-stilistik vositalar haqida muhim ma'lumotlar keltirildi va qolaversa ularning tarjimadagi xususiyatlari ham aytib o'tildi. Shuningdek, ular yuzaga keltiradigan muammo va qiyinchiliklar tilga olinib, qanday tarjima qilish usullari bayon etildi. Qo'shimchasiga, leksik-stilistik vositalar tarjimada uslub, kayfiyat va ekspressivlikni to'laqonli yetkazish uchun juda muhimligi ham aytib o'tildi.

Kalit so'zlar: Metafora, metanimiya, sinekdoxa, epiteta, ironiya, sinonimiya, antonimiya, frazeologizmlar, litota.

1.KIRISH

Tarjima nazariyasi o'z mohiyatiga ko'ra tillar o'rtasidagi ma'lum bir munosabatni o'rganadi va shu sababli **qiyosiy tilshunoslik**ning bir bo'limi hisoblanadi. Tarjima nazariyasi nuqtayi nazaridan esa **sinxronik** (ya'ni, bir vaqtning o'zidagi) va **diaxronik** (ya'ni, vaqt o'tishi davomida yuzaga keladigan) solishtirish o'rtasidagi tafovut ahamiyatli emas. Tarjima ekvivalentlari istalgan ikki til yoki lahja o'rtasida - ular o'zaro qarindosh bo'lsin yoki bo'lmasan geografik, ijtimoiy, vaqtga oid yoki boshqa qandaydir aloqaga ega bo'sin - barpo etilishi va ular o'rtasida tarjimalar amalga oshirilishi mumkin. Tillar o'rtasidagi munosabatlar, odatda, ikki tomonlama deb qaraladi, garchi bu har doim mutanosib bo'lmasligi mumkin. Tarjima jarayoni esa har doim bir yo'nalishda amalga oshiriladi: u doimo asliyat tilidan (SL) tarjima tiliga (TL) qarab olib boriladi. Ushbu matn davomida biz quyidagi qisqartmalardan foydalanamiz:

SL – Asliyat til (Source language)

TL – Tarjima tili (Target language)

Tarjima – bu bir tildagi matn materialini (SL) boshqa til (TL) dagi ekvivalent matn materiali bilan almashtirish jarayonidir. Ushbu ta'rifdagi ikki leksik birlik izoh talab etadi. Bular - “textual material” (ya'ni, matn materiali) va “equivalent” (ya'ni, ekvivalent) so'zlaridir. “Textual material” atamasidan foydalanish – oddiy holatda asliyat tildagi butun matnning emas, balki uning ma'lum darajadagi qismlarining tarjima qilinishini ta'kidlaydi. Ya'ni, har doim ham asliyat tildagi matn tarjima tilidagi matnga teng hamda to'g'ri shaklda o'tkazilmaydi, balki bu ayrim til darajalarida ekvivalent bo'lmagan material bilan oddiy almashtirish bo'lishi ham mumkin. Masalan, ingliz tilidagi “What time is it?” degan gapni fransuz tiliga “Quelle heure est-il?” deb tarjima qilganimizda, ingliz tilidagi grammatika va leksika fransuz tilidagi ekvivalent grammatik va leksik vositalar bilan almashtirilgan bo'ladi. Shuningdek, asliyat tildagi grafik shakl (ya'ni, yozuv va orfografiya) ham tarjima tildagi grafik shakl bilan almashtiriladi. Biroq bu holatda tarjima tilidagi grafologik forma, asliyat tildagi grafologik formaning haqiqiy tarjima ekvivalenti deb bo'lmaydi. Ya'ni, grafik shakllar o'rtasidagi almashinish tarjimaning semantik ekvivalentligini anglatmaydi. [1. 20-21]

Boase-Beierning “Tarjima nazariyalari tadqiqi” asarida uning uslub(stil) haqidagi tahlillari innovatsion nazariyalarni ularning intellektual va tarixiy kontekstida tushunarli, keng qamrovli

va tanqidiy tahlil asosida o'rganishdan iboratligi aytib o'tilgan. Garchi muallif, avvalo, badiiy matnlar tarjimasi va kognitiv stilistikaga yondashuv orqali “uslub nima?” , “uning ta'siri qanday?” , “qanday ishlaydi?” va “tarjima jarayonida u qanday o'zgaradi?” degan savollarga javob topishga urinayotgan bo'lsa-da, u no-badiiy matnlardan ham misollar keltiradi va turli stilistik figuralar ularda qanday ishlashini ham ko'rib chiqadi. Eng muhimi, Boase-Biere o'z tadqiqi davomida badiiy matnlar va badiiy bo'lmagan matnlar o'rtasidagi farq hamda jarayonidagi tafovutlarni aniqlashga alohida e'tibor qaratadi. Uning farqlash mezonu – kognitiv yondashuvga asoslanadi va Relevance (Ahamiyatlilik) nazariyasidan foydalanadi. Bu nazariyaga ko'ra:

Badiiy bo'lmagan matnlarda o'quvchi “mini-miks” prinsipi asosida harakat qiladi: ya'ni maksimal ma'noni ajratib olish uchun eng kam kuch sarflab, maksimal ma'noni ochishga intiladi. Matnda qancha murakkab stilistik figuralar bo'lsa va ularni anglash uchun o'quvchi qancha aqliy harakat sarf qilsa, u shunchalik estetik zavq va qoniqish hosil qiladi. Boshqacha aytganda, badiiy matnlarning vazifasi – o'quvchini aniq bo'lmagan, hatto qarama-qarshi ma'nolarni izlashga undashdir. Bu esa o'quvchida tekstdagi noaniqlikni aks ettiruvchi kognitiv holatni yuzaga keltiradi. Natijada o'quvchi bir vaqtning o'zida bir nechta ma'noni eslab qolishga qodir bo'ladi. [2.144-145]

LEKSIK-STILISTIK VOSITALAR

Leksik-stilistik vositalar – bu muallif nutqining obrazlilikini, hissiyotini, emotsional ta'sirini kuchaytiradigan, leksik qatlamga oid stilistik birliklardir. Ular orqali matnning ekspressivligi, poetikasi, ironiya yoki baholanuvchanligi ifodalanadi. Leksik-sintaktik vositalar tarjimada uslub, kayfiyat va ekspressivlikni to'laonli yetkazish uchun juda muhim. Tarjimon bu vositalarni tanlashda madaniy muvofiqlik, kontekst va stilistik yuklamani chuqur tahlil qilishi lozim. Leksik-stilistik vositalar o'z ichiga bir qancha guruhlarini singdiradi, xususan, metafora, metonimiya, sinekdoxa, ironiya, sinanomiya, antonomiya, litota, epitet. Hozir quyidagilarga birma-bir tahlil va ta'rif beramiz.[3]

METONIMIYA, SINEKDOXA, METAFORA

Metanimiya yunoncha “metonymia” - qayta nomlash demakdir. Narsa va hodisalar o'rtasida makon va zamondagi o'zaro aloqadorlik asosida birining nomini ikkinchisiga ko'chirishi metanimiya hisoblanadi. Metanimiyaning uch guruhi mavjud bo'lib, ularga:

- 1) Shaxs orqali narsa, o'rin-joy anglashiladi – Fuzuliyini oldim qo'limga.
 - 2) Narsa, o'rin- joy orqali shaxs anglashiladi – Navbatim “jinsi” dan keyin.
 - 3) Narsa, o'rin- joy orqali narsa, o'rin- joy anglashiladi – Samovarda osh yedik.
- Quyidagi shaxs nomlari metonimiya asosida yuzaga kelgan: Ramazon, Odina, To'ychi, Sunnat, Yodgor, Saksonboy, Navro'z, Yo'lchi.[4.196]

In metonymy, a word that is associated with something is used to refer to that thing, as when crown is used to mean “king” or “queen”, or when Mark Antony asks the people of Rome to lend him their ears in William Shakespeare's play Julius Caesar. It's also metonymy when an author's name is used to refer to works written by that person, as in “We are studying Jane Austen”. [5] Metonimiya inson tajribasi va tafakkuriga asoslangani sababli, u turli shakllarda til ifodalarida keng tarqalgan. Metonimiyaning konseptual (tushunchaviy) tabiati ingliz tilining lug'atini boyitadi. O'xshash fikrlash uslubiga ko'ra, ayrim metonimik ifodalar ingliz va xitoy tillarida bir xil tarzda uchraydi. Masalan, ingliz tilidagi “we need more hands” (bizga ko'proq qo'l kerak) degan ibora xitoy tilida ham bizga ko'proq ishchi qo'li kerak tarzida so'zma-so'z tarjima qilinadi. Til o'rganuvchilar uchun metonimiyaning kognitiv (idrokka oid) tabiatini yaxshi o'zlashtirish

lugʻat boyligini oshirish va tilni egallashda katta yordam beradi. Aksincha, agar oʻrganuvchilar metonimiyaning tushunchaviy tizim sifatidagi vazifasidan bexabar boʻlsalar, ular ayrim gaplarni tushinishda qiynaladilar va kerakli xulosani chiqara olmaydilar. Boshqacha aytganda, metonimiyaning mohiyatini toʻliq anglash tilni tushunish va tarjima qilishni yengillashtiradi, holbuki metonimiyaning yuzaki yoki qisman tushunish oʻrganuvchiga toʻsiq boʻladi. Metonimiyalar tarjimasi oʻrganuvchining metonimiyaning qay darajada anglaganini namoyon etadi.[5]

Sinekdoxa yunoncha “synekdoche” - birgalikda anglash soʻzidan olingan boʻlib, boʻlak orqali butunni yoki butun orqali boʻlakni ifodalashni bildiradi. Maʼno koʻchirishining bu turi ham nutqimizning taʼsirchanligini oshirishda, ifodali, jozibali boʻlishda katta ahamiyatga ega. Uning ikki turi mavjud:

- 1) Boʻlak (qism) orqali butunni ifodalash – Bitta tuyuq bilan olti qorinni boqib kelyapman.
- 2) Butun orqali boʻlak (qism) ni ifodalash – Olma archayotib qoʻlini kesdi. [4.198].

Synecdoche refers to a literary device in which a part of something is substituted for the whole (as hired hand for “worker”), or less commonly, a whole represents a part (as when society denotes “high society”). Here are some examples of synecdoche: the word “hand” in “offer your hand in marriage”; “mouths” in “hungry mouths to feed”; “wheels” referring to a car. [5].

Metafora yunoncha “metaphora” - koʻchirish soʻzidan olingan boʻlib, bir predmet nomining boshqa predmet nomiga ular oʻrtasidagi maʼlum oʻxshashlik asosida koʻchirishidir. Uning ham uch turi mavjud:

- 1) Bir narsaning nomi boshqa narsaga oʻxshashlik asosida koʻchiriladi - majnuntolning sochi, koʻchaning boshi, qozonning qulogʻi.
- 2) Bir narsaning belgisi boshqa narsaning belgisiga oʻxshashlik asosida koʻchiriladi - yaqin qarindosh, qalin doʻst, yengil jarohat, iliq muomala.
- 3) Bir narsaga xos harakat boshqa narsa harakatiga oʻxshashlik asosida koʻchiriladi - qarzgaga botdi, raqobatda sindi, doʻstni sotdi. [4.193].

Garchi tarjimaning asosiy muammosi matn uchun umumiy tarjima usulini tanlash boʻlsa-da, eng muhim xususiy muammo – bu metaforani tarjima qilishdir. Bu yerda metafora deganda har qanday badiiy ifoda nazarda tutiladi: soʻzning koʻchma maʼnosi (masalan, ingliz tilidagi “to originate” - “kelib chiqmoq” - bu soʻzning asl jismoniy maʼnosidan koʻchgan); mavhum tushunchalarga misol qilib, “ogʻir yurak” - yaʼni, qaygʻuga toʻla yurakni aytishimiz mumkin. Shuningdek, ingliz tilidagi koʻpgina frazeologik feʼllar (put off - “kechiktirmoq”, “fikridan qaytmoq”, “bezovta qilmoq” va h.k) oʻzlarida potentsial metaforalikni saqlaydi. Metaforalar “yakka” (yaʼni, bir soʻzli) yoki “kengaytirilgan” boʻlishi mumkin – bu iboralar, idiomalar, gaplar, maqollar, alegoriyalari yoki butun bir badiiy matn boʻlishi mumkin.[5].

EPITET VA IRONIYALAR

Epitet, sifatlash – stilistika va poetika termini; antik davrdan maʼlum badiiy tasviriy vositalardan. Narsa va hodisalarga, tushuncha va h.kga xos xususiyatlarni obrazli tavsiflash. Aksariyat hollarda sifat, shuningdek, ravish, ot, son, feʼl vositasida ifodalanadi (masalan, zar doʻppi, qutlugʻ kun, hovliqib gapirdi kabi). Sifatlash gapni, iborani shunchaki bezash vositasi emas, balki u mazmun bilan aloqador boʻlib, nutqning mantiqiy, psixologik, lingvistik, adabiy va boshqa jihatlarida namoyon boʻladi. Predmetni uning boshqa turlaridan ajratib koʻrsatuvchi (“murgʻak sheʼr” kabi) oddiy mantiqiy taʼrifdan farq qilib, sifatlash predmetning yo biron bir xususiyatini ajratib koʻrsatadi (“chetan arava”) yoki istiorali epitet sifatida unga boshqa bir

predmetga xos xususiyatni ko'chiradi ("kumush qish", "zumrad bahor", "uchqur ot" kabi). Xalq og'zaki poetik ijodida sodda va doimiy sifatlashlar ko'p qo'llaniladi ("pahlavon yigit", "cho'ri qiz", "uchar gilam" kabi). Sharq va, jumladan, o'zbek mumtoz adabiyotida ham ayrim sifatlashlar ("bodomqovoq", "sarvqomat", "pistadahan" kabi) ko'p takrorlanib, doimo uchrashi oqibatida qo'shma fi'latlarga – murakkab sifatlashlarga aylanib ketgan ("bodomqovoq qiz", "sarvqomat juvon" kabi). Epitet – so'zga ta'rif yoki ifoda beruvchi she'riy vosita. Badiiy matnlarda, ba'zan she'riy va lirik asarlarda ham qo'llaniladi. Epitetning maqsadi muallif e'tiborini jalb qilmoqchi bo'lgan alohida narsani, uning o'ziga xos ekspressivligini ta'kidlashdir. Epitetlar tasvirlarga yorqinlik berishga yordam beradi.[7]. There are some specific problems of translating the epithets. One of them is enantiosemy, or using a word in its paradoxical meaning when the word is capable of carrying two opposite significations. Usually the enantisemic epithets reveal a negative attitude of the speaker. "He is a fine fellow as ever i saw. He simpers and smirks and makes love to us all. I am prodigiously proud of him I defy even Sir William Lucas himself to produce a more valuable son-in-law. (J. Austen) The words simpers and smirks show an ironic attitude of the speaker to the character. The epithets "valuable" and "prodigiously proud" are understood in the opposite sense. This irony must not escape from a target readers.[8.144-145].

"Haqiqiy istehzo (**ironiya**) deb nimani atash mumkin?" degan savol ustida ko'plab fikrlar yuritilgan va bu borada lug'atlardan tez-tez yordam so'raladi. Quyida "ironiya" so'zining qanday qo'llanilishi haqida faktlar keltirilgan. Ironiyaning ikki rasmiy, lekin kundalik matnlarda unchalik tez-tez uchramaydigan shakli mavjud. Ulardan biri – Sokrat ironiyasi bo'lib, bu bahsda raqibning bilimsizligini o'zingizni johil ko'rsatib, sinchkov savollar orqali fosh etish usulidir. Ikkinchisi esa – dramatik yoki fojiali ironiyadir, ya'ni sahnadagi vaziyat bilan undagi qahramonlarning so'zlari orasida qarama-qarshilik bo'ladi va bu holatni faqat tomoshabin anglay oladi. Sokrat ironiyasi – bahs-munozarada ishlatiladigan usul bo'lsa, dramatik ironiya esa go'yo Romeo va Juliyettaning rejasi barbod bo'lishini tomoshabin fahmlab turgan holat kabidir. Uchinchi va ko'p bahslarga sabab bo'layotgan shakl bu vaziyat ironiyasi (situation irony) deb ataladi. Bu holatda kutilgan yoki rejalashtirilgan natijaning aksini ro'y berishi e'tiborni tortadi. Masalan, bir kishi chuqur joyga tushub ketmaslik uchun uni aylanib o'tadi-yu, yana boshqa bir chuqurlikka tushib, jarohat oladi. Tanqidchilar aytishicha, bunda "isn't it ironic that you called just as i was planning call you?" kabi misollar aslida ironiya emas, tasodif deb atash joiz. Tarixiy manbalar shuni ko'rsatadiki, "irony" va "ironic" so'zlari kamida 100 yildan beri aniq chegaralarsiz, ba'zida aynan tasodifni ifodalash uchun ham ishlatib kelingan. Masalan, 1939-yilda yozuvchi F.Skott Fitzgerald quyidagicha yozadi: "Bu ishni qilishga unchalik ishonmasdim, baribir oxirgi suratga tushu ishim menga besh ming besh yuz dollardan ortig'ini tibbiy xarajatlarimga sarflashga to'g'ri keldi – bu qanday kesatq?" Bu haqiqiy situation ironiyasimi? Bu masala juda bahsli. Bugungi kunda "ironiya" atamasi ba'zan shunchaki qiziq yoki tasodifiy holatlar uchun ham ishlatilmoqda. Ayrimlar buni noto'g'ri ishlatish deb bilsalar-da, bu aslida so'zning yangi qo'llanilish shaklidir.[5].

SINONIMIYA VA ANTONIMIYA

Sinonimlar – bu ma'nodosh so'zlar hisoblanib, bir umumiy leksik ma'no anglatuvchi ikki va undan ortiq so'zlarga aytiladi. Ma'nodosh so'zlar nutqning ta'sirli bo'lishiga, bir ma'noning turli xil qirralarini ifodalashga yordam beradi. Ular bir xil so'z turkumiga oid bo'ladi: yuz, bet, aft, bashara, turq, chehra, oraz , jamol, ruxsor (ot); hayoli, andishali, oriyatli, iboli (sifat); yarim, ikkidan bir (son); hamma, bari, barcha (olmosh); gapirdi, so'zladi (fe'l); ko'p, mo'l, bisyor (ravish); va, hamda (bog'lovchi); kabi, singari, yanglig' (ko'makchi); xuddi, naq (yuklama); ehtimol, balki (modal so'zlar) va hokazo. Tildagi o'zlashma (boshqa tildan kirgan) so'zlar o'zbekcha so'zlar bilangina emas, balki o'zaro ham sinonim bo'lishi mumkin: respublika (lot.) - jumhuriyat (arab.). Tub so'zlar yasama so'zlar bilan sinonim bo'lishi mumkin: his (tub) - sezgi

(yasama), savol (tub) - so'roq (yasama). Sinonimlik qatordagi so'zlar eskirishi mumkin: odat , rasm, urf, **fan** (rasm, odat); iltimos, o'tinch, **tavallo**; oqsoq, cho'loq, **lang**. So'z maqomidagi sinonimlar **lug'aviy (leksik) sinonimlar**, qo'shimcha maqomidagi sinonimlar esa **affiks sinonimlar** sanaladi.[6.86-87]. Synonymy is a controversial issue which was discussed from different points of view by Arab and European scholars. In English, for example, as cited in Hassan (2014:169) synonymy is defined as "the similarity in meaning" by (Palmer, 1981: 88; Crystal,1993:340; Ghazala,2002:89). Other linguists as pointed by Abu-Melhim & Al-Omar (2014) like Palmer (1976); Cruse (1986); Farghal (1998) state that synonymous words are those which share the same meaning in which synonymy represents the connection between these words as one clarifies the meaning of the other. It seems that synonymous words tend to be those that share the main attributes of them to convey the meaning and ignore those indicate tiny difference.[9.31-32]

Antonimlar – bu zid ma'noli so'zlar hisoblanib, grekcha anti - <<zid>>, <<qarama-qarshi>>, onoma yoki onuma <<nom>> degani bo'lib, qarama-qarshi tushunchalarni ifodalaydigan so'zlardir. Antonomik juftlikdagi so'zlar faqat bir xil so'z turkumlariga oid bo'ladi: yer-osmon (ot), uzun-qisqa (sifat), ko'p-oz (ravish), keldi-ketdi (fe'l). So'z maqomidagi antonimlar lug'aviy (leksik) antonimlar, qo'shimcha maqomidagi antonimlar esa affiks antonimlar sanaladi. Antonomik juftlik hosil bo'lishi uchun ikkita mustaqil tushuncha ma'no jihatdan o'zaro qarama-qarshi bo'lishi kerak. Fe'llardagi bo'lishli-bo'lishsizlik xususiyati antonimlikni vujudga keltirmaydi. Ko'p ma'noli so'zlar har bir ma'nosi bilan ayrim-ayrim so'zlarga antonim bo'lishi mumkin: qattiq yer-yumshoq yer; qattiq (xasis) odam-saxiy odam. Antonomik juftliklar ko'chma ma'no ifodalab, yangi so'zlar hosil qilishi mumkin: tun-u kun – "hamma vaqt" ma'nosida, achchiq-chuchuk - "salat" ma'nosida, yosh-u qari – "hamma" ma'nosida, uzoq-yaqin - "hamma yoqdan" ma'nosida. [6.88]. Words that are opposite in meaning are called antonyms. Two words can be called antonyms when they share all the semantic features but one. "Tall" and "short", for instance, are semantically similar and belong to the same semantic category, which is "height". Nevertheless, the property that they do not share is present in one and absent in the other. Antonyms are recognized of "their dependence upon dichotomization" (Lyons,1997, p.271) in which binary opposition can be revealed in the form of contradictory pairs.[10.1].

FRAZEOLIGIZMLAR VA LITOTALAR

Frazeologiya tilshunoslikning bir bo'limi bo'lib, u tilning lug'at tarkibidagi frazemalar haqida ma'lumot beradi. Frazema ko'chma ma'nola turg'un konstruksiyadir. Masalan, zo'raymoq (leksema) - avj olmoq (frazema), qiynalmoq (leksema) - azab chekmoq (frazema) kabi. Demak, frazema ham leksema kabi lug'aviy birlik sanaladi, ammo o'zining ifoda va mazmun planlaridagi qator belgilari bilan leksemadan farqlanadi. Frazemaning ifoda plani deganda uning tovush tomoni, leksik tarkibi, birikmaga yoki gapga teng konstruksiyasi nazarda tutiladi. Masalan, ko'nglini olmoq (birikmaga teng), ko'zlari qinidan chiqib ketdi (gapga teng), boshi qotdi (gapga teng), ensasi qotdi (gapga teng) kabi. Frazemalar orasida qo'shma gapga teng qurulishli turg'un konstruksiyalar ham uchraydi: "qor yog'ib, izlar bosilda" kabi.[4.216-217]. Idioms are linguistic expressions or lexical items representing objects, concepts or phenomena of material life particular to a given culture. They are necessary to any language in order to keep the local and cultural color of that language. In a definition given by Larson idiom is "a string of words whose meaning is different from the meaning conveyed by the individual words" (Larson, 1984, p.20). In another place he states that idiom "carries certain emotive connotations not expressed in the other lexical items" (Larson, 1984, p.142).[11.1].

Litota, kichraytirish – istiora turlaridan biri. O'zbek mumtoz adabiyotida: tafrif, tasg'ir (mo'tadillikdan pastki holat). Kichraytirish 2 narsa, hodisa yoki tushuncha o'rtasidagi umumiy va juz'iy xususiyatlarga asoslanadi, ularning hajm, vaqt, o'lchov jihatlarini qiyosan kichraytiriladi. Mubolag'aning aksi. Tasvir obyekti o'ta kichik, zaof qilib ifodalash orqali uning mohiyati ta'kidlanadi. Shuningdek, tasvirga haddan tashqari ko'tarinkilik, satirik va yumaristik ruh berish uchun ham qo'llaniladi. Kichraytirish leksik jihatdan o'xshatish, sifatlash, istioraga asoslanadi.[3]. Even if you have heard the word *litotes*, chances are you have encountered this figure of speech. If you have ever approved of a job well done by exclaiming “not bad” or told someone that you are “not unhappy” when you are ecstatic, you have even used it yourself. In fact, you might say that it would be “no mean feat” to avoid this common feature of our language! And *litotes* is not only common; It is also simple – etymologically speaking, that is. *Litotes* evolved from a Greek word meaning “simple”, and perhaps ultimately from another Greek word meaning “linen cloth”. [5].

Avvalo, badiiy tarjimada leksik-sintaktik bo'yoqdorlik qiyinchiliklari mavzusi tarjima nazariyasi va amaliyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki badiiy asarlarni tarjima qilishda nafaqat mazmun, balki asarning stilistik uslubi, emotsional va ekspressiv bo'yoqdorligi ham dolzarb hisoblanadi. Keling, avvalo stilistik bo'yoqdorlik so'zini tushunib olsak. Stilistik bo'yoqdorlik deganda, asarning so'z boyligi, uslubiy xususiyatlari va badiiy vositalar orqali yaratilgan hissiy ta'sir ko'zda tutiladi. Aytib o'tish kerakki, leksik-stilistik bo'yoqdorlikning bir qancha muammolari bor. Buning asosiy sabablari quyidagilar:

- 1) **Lingvistik tafovutlar:** Har bir o'ziga xos leksik va stilistik boylikka ega. Masalan, bir tildagi poetik yoki emotsional ifoda vositalari boshqa tilda aks ettirilmasligi mumkin.
- 2) **Konteksni yetkazish qiyinligi:** So'z yoki iboralar ma'lum bir madaniy, tarixiy yoki ijtimoiy kontekstda ma'no kasb etadi, Tarjima jarayonida ushbu kontekstni boshqa madaniyat vakiliga to'g'ri yetkazish oson emas. Va kontekst yetkazish qiyinligi tarjima yoki muloqot jarayonida til va madaniyatlar o'rtasidagi farqlar sababli paydo bo'ladi. Quyida bunday qiyinchiliklarga ba'zi misollar keltirilgan: Madaniy kontekstga bog'liq iboralardan – inglizcha “it's raining cats and dogs”, agar biz bu iborani to'g'ridan to'g'ri tarjima qiladigan bo'lsak, itlar va mushuklar yog'yapti bo'ladi, biroq bunday tarjima xato bo'ladi. Shu sababli shu va shunga o'xshash iboralar tarjimasida juda ehtiyot bo'lish va word for word tarjima adekvat bo'lmasa, ekvivalent tarjimadan foydalanish zarur.[12].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, maqola davomida leksik-stilistik vositalarga nimalar kirishi va ularning ma'nolari to'g'risida birmuncha ma'lumotlar keltirildi. Shuningdek, tarjima chog'ida ularning qaysi xususiyatlariga e'tibor qaratish va qanday tarjima qilish zarurligi to'g'risida ham bir qancha ishonchli manbalar asosida yechim va qarashlar bayon etildi. Eng asosiysi, leksik-stilistik vositalar tarjimasida juda ehtiyotkorlik bilan yondashish kerakligi hamda turli xil millatlar so'zlashuv uslubidagi ibora-yu, ma'no ko'chishlarga e'tiborli bo'lish to'g'risida ham aytib o'tildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. J. C. Catford “A linguistic theory of translation”.
2. Boase-Beier, Jean (2006). Stylistic approaches to translation.
3. <https://www.wikipedia.de>.
4. “Hozirgi o'zbek adabiy tili” akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning I, II, III bosqich talabalari uchun darslik.
5. <https://www.merriam-webster.com>.
6. Madram Hamrayev “Abuturiyent-2014” loyihasi turkumidan

7. <https://presedu.jdpu.uz>.
8. Translating Epithets in Fiction: A Stylistic Study of Semantic and Pragmatic Equivalence.
9. The Translation of Synonyms in Arabic and English. Tasneem Fayez Aqel.
10. Translation of Antonyms. MR: BOULKHESSAIM Adel.
11. Translating of Idioms: A Hard Task for the Translator. Amineh Adelnia.
12. Qo'qon DPI. Ilmiy xabarlar 2025-yil 1-son.